

XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ALIMENT MAJBURIYATLARI BORASIDA QO'LLANUVCHI HUQUQNI ANIQLASH MUAMMOLARI

Dirim Nodira Xolmamatovna

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti "Xalqaro huquq va Inson huquqlari" yo'nalishi

Magistratura bosqichi talabasi.

Email: nodira791115@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14174969>

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqaro xususiy huquqda aliment majburiyatlarini huquqiy tartibga solish, ushbu huquq buzilishi natijasida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan oqibatlar va unga nisbatan qo'llanadigan javobgarlik masalasi izchil tahlil qilingan. Ushbu ma'lumotlarni aniqligini oshirish maqsadida turli xil qonun hujjatlaridan keng foydalanildi. Mavzu doirasida xorijiy va milliy olimlarning fikrlaridan, ilmiy ishlaridan, qilgan tadqiqot natijalaridan, gazeta va jurnallardan, xorij mamlakatlari qonun hujjatlaridan maqsadli havolalar berildi.

Kalit so'zlar: aliment, oila, er-xotin munosabatlari, qonun, javobgarlik, aliment miqdori, aliment undirish tartibi.

PROBLEMS OF DETERMINING APPLICABLE LAW REGARDING ALIMENT OBLIGATIONS IN PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Abstract. In this article, the legal regulation of alimony obligations in international private law, the consequences that may arise as a result of the violation of this right, and the issue of liability applied to it are consistently analyzed. In order to increase the accuracy of this information, various legal documents were widely used. Within the scope of the topic, targeted references were given from the opinions, scientific works, research results of foreign and national scientists, newspapers and magazines, legal documents of foreign countries.

Key words: alimony, family, marital relations, law, responsibility, alimony amount, alimony collection procedure.

ПРОБЛЕМЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ПРИМЕНИМОГО ПРАВА В ОТНОШЕНИИ АЛИМЕНТНЫХ ОБЯЗАТЕЛЬСТВ В МЕЖДУНАРОДНОМ ЧАСТНОМ ПРАВЕ

Аннотация. В данной статье последовательно анализируется правовое регулирование алиментных обязательств в международном частном праве, последствия, которые могут возникнуть в результате нарушения этого права, а также вопрос применимой к нему ответственности. В целях повышения достоверности этой информации широко использовались различные нормативно-правовые документы. В рамках темы были даны целевые ссылки на мнения, научные труды, результаты

исследований зарубежных и отечественных ученых, газеты и журналы, правовые документы зарубежных стран.

Ключевые слова: алименты, семья, супружеские отношения, закон, ответственность, размер алиментов, порядок взыскания алиментов.

KIRISH

Xalqaro oilaviy huquqning amaldagi eng muhim masalalaridan biri bu alimentdir. Xalqaro xususiy huquqda aliment majburiyatlarini huquqiy tartibga solish murakkab soha bo'lib, xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan hollarda aliment to'lash yoki turmush o'rtog'ini qo'llab-quvvatlash bo'yicha majburiyatlarni ko'rib chiqishda qaysi davlat qonunlari qo'llanilishi kerakligini aniqlashni o'z ichiga oladi. Xususiy xalqaro huquq, ko'pincha qonunlar kolliziyasi deb ataladi, shaxslar yoki oilalar bir nechta davlatlar bilan aloqada bo'lganda yuzaga keladigan yurisdiksiya va huquq tanlash masalalari bilan shug'ullanadi. Har bir davlat nikoh va oilaviy munosabatlar bilan bog'liq masalalarni boshqacha tartibga soladi. Xususan, bu turmush o'rtoqlar o'rtasidagi mulkiy munosabatlarga ham tegishli bo'ladi.

Turli davlatlarning oila huquqlari moddiy-huquqiy normalari orasida katta xilma-xilliklar bor. Bu endi albatta, xorijiy element ishtirokidagi huquqiy munosabatlarning turli masalalarini hal etishda amalda kolliziyalarni, ya'ni qarama-qarshiliklar, to'qnashuvlarni vujudga keltiradi. «Kolliziya» so'zi («qonunlar kolliziyasi», «kollizion masala», «kollizion norma») bu yerda turli mamlakatlar qonunchiliklarining to'qnashuvini ifoda etadigan ibora sifatida ishlatilmoqda. Xorijiy so'zlar lug'atida «kolliziya» so'zi qarama-qarshi nuqtayi nazarlar, intilishlar, manfaatlar to'qnashuvini anglatadi, deb izoh berilgan. «Kollizion huquq» degani esa xalqaro xususiy huquqning normalari bo'lib, ma'lum bir masalada to'qnash kelgan xorijiy va o'z davlati qonunlarida qaysi biri qo'llanilishini aniqlab beradi. Bir qator mamlakatlarning oila huquqiga erining oldidagi yakkahokimligi xosdir; er va xotinning oilada teng huquqli emasligi ko'pgina mamlakatlarda hozirgi kungacha saqlanib kelmoqda. Bunday mamlakatlarning fuqarolik kodekslarida nikoh shartnomasi tuzish belgilab qo'yilgan. Bunday shartnoma asosan nikohdan avval tuziladi va unda xotinning mol-mulkiga erining huquqlari mustahkamlab qo'yiladi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning dastlabki bosqichi Oila hamda ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq xalqaro konvensiyalar va bunday kelishuvlarga qo'shilgan ilg'or mamlakatlar tajribasi bo'yicha mavjud adabiyotlarni keng ko'lamli ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari, ushbu maqolani tayyorlashda bir qancha mahalliy va xorijiy davlatlarning veb-saytlaridan foydalanildi, shu qatorda tegishli statistikalar tahlil qilindi, va yakunda, mavjud fikrlar umumlashtirilgan holda xulosa berildi. Maqola xalqaro IMRAD talabi qoidalari asosida tayyorlandi.

NATIJALAR

Ushbu tadqiqot xalqaro xususiy huquq doirasida aliment majburiyatlari bilan bog'liq nizolarni hal etishda qo'llaniladigan huquqni aniqlash jarayonining muammolarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatadi:

Turli davlatlarning milliy huquq tizimlarida aliment majburiyatlariga nisbatan qo'llaniladigan kolizion qoidalar o'zaro farq qiladi. Bu esa transmilliy nizolarda nizoni qaysi mamlakat huquqi asosida hal qilishni aniqlashni murakkablashtiradi. Masalan, ba'zi davlatlar da'vogar yashaydigan davlatning huquqini qo'llashni talab qilsa, boshqalari aliment majburiyatiga sabab bo'lgan shartnoma tuzilgan yoki sud qarori chiqarilgan davlat huquqini asos qilib oladi.

Gaaga protokoli (2007) aliment majburiyatlariga nisbatan qaysi huquq qo'llanilishini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu protokolda aliment oluvchining yashash joyi davlatining huquqi ustuvor deb belgilangan. Biroq O'zbekiston kabi ushbu protokolga a'zo bo'lmagan davlatlar uchun xalqaro standartlar cheklangan darajada qo'llaniladi.

Ko'pgina davlatlarda aliment majburiyatlarini hal qilishda bolalar manfaatlariga ustuvorlik berilgan bo'lsa-da, yuridik texnikada tafovutlar mavjud. Misol uchun, Ba'zi yurisdiksiyalar aliment miqdorini hisoblashda oilaning moliyaviy holatini batafsil tahlil qiladi. Ayrim davlatlarda esa umumiy qonuniy formulalar asosida aliment miqdori belgilanadi, bu esa adolatsizlikka olib kelishi mumkin.

O'zbekistonning milliy qonunchiligida aliment majburiyatlari masalalari aniq belgilangan bo'lsa-da, transmilliy nizolarni hal qilishda xalqaro huquq me'yorlari bilan uyg'unlashuv yetarli darajada emas. Bu muammo xalqaro konvensiyalarga qo'shilish va milliy qonunchilikni moslashtirish orqali bartaraf etilishi mumkin.

Sudlar aliment bilan bog'liq xalqaro nizolarni ko'rib chiqishda bir xil yondashuvni qo'llamayapti. Ayrim hollarda kolizion qoidalar noto'g'ri talqin qilinmoqda, bu esa qarorlarning ijro etilishi va adolatni ta'minlashda qiyinchiliklarga olib keladi.

Aliment majburiyatlari bo'yicha nizolarning tezkor va adolatli hal qilinishini ta'minlash uchun aliment oluvchining yashash joyi davlatining huquqini ustuvor sifatida belgilash eng samarali mexanizm ekanligi aniqlangan. Shu bilan birga, davlatlar o'rtasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va xalqaro konvensiyalarga keng qo'shilish zarur.

Ushbu natijalar xalqaro xususiy huquqni qo'llashda huquqni aniqlash masalasida muayyan takliflarni ishlab chiqish va milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish muhimligini ko'rsatadi.

MUHOKAMA (ASOSIY QISM)

Oilaviy munosabatlar bilan murakkablashgan chet el elementi mavjud bo'lgan hollarda qaysi davlat huquqi qo'llaniladi va qaysi davlat organlari oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan u yoki bu masalalar bo'yicha qaror qabul qilishga vakolatli, degan savollar yuzaga keladi. Bunday muammolar xalqaro xususiy huquq doirasiga tegishlidir. U yoki bu masalani qanday hal etish lozimligi xususidagi to'g'ridan-to'g'ri javobni, to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmani o'zida mujassam etmagan va qaysi qonunchilik qo'llanilishi lozimligini ko'rsatuvchi kollizion (to'qnashuv) normalar xalqaro xususiy huquqning asosini tashkil etadi. Bunday normalar turli manbalarda mavjuddir.

Eng avvalo, bu O'zbekiston Respublikasining ichki qonunlaridir. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida kollizion normalardan tashkil topgan Maxsus bo'lim bor (VIII bo'lim. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni tartibga solish). O'zbekiston Respublikasi bilan boshqa davlatlar o'rtasidagi xalqaro shartnomalarda ham kollizion normalar mavjuddir. Chet el elementi bilan murakkablashgan oilaviy munosabatlarning keng tarqalganligi O'zbekiston Respublikasi bilan boshqa davlatlar oilaviy qonunchiliklari o'rtasidagi ziddiyatlarni hal etish muammosini keltirib chiqaradi, zero o'sha davlatlar fuqarolari O'zbekiston Respublikasi oila huquqining ta'sir doirasiga tez-tez tushib qola boshladilar, bu esa tegishli ravishda mamlakat hududidagi oilaviy munosabatlarda ularning huquqlarini ishonchli kafolatlash zaruriyatini keltirib chiqardi. Ikkinchi tomondan, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarda O'zbekiston fuqarolarining, ayniqsa bolalarning qonuniy huquqlari va manfaatlariga rioya qilish masalasi muhimlikda yuqorida tilga olingan masalalardan qolishmaydi.

O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligida aliment majburiyatlari oilaviy munosabatlarning ajralmas qismi sifatida keng tartibga solingan. Ushbu sohadagi asosiy normalar O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi va boshqa qator qonunchilik hujjatlarida belgilangan. Oila kodeksi aliment majburiyatlariga oid asosiy huquqiy me'yorlarni belgilaydi.

Alimentga oid da'volarni ko'rib chiqish tartibi Fuqarolik protsessual kodeksida batafsil bayon qilingan. Aliment majburiyatlari bo'yicha da'volar odatda sudning soddalashtirilgan tartibida ko'rib chiqiladi, bu aliment talabini tezkor hal qilish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi qonuni (2008-yil 7-yanvar) bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, aliment majburiyatlarini o'z vaqtida

va to'liq bajarilishini kafolatlaydi. Unda aliment talab qilayotgan bolalarning manfaatlari ustuvorligi haqida qayd etilgan.

Aliment majburiyatlarini belgilashda sudlar yondashuvi ba'zan turlicha bo'lishi mumkin.

Ayniqsa, daromadni yashirish yoki boshqa moddiy mablag'larni ko'rsatmaslik holatlarida aliment miqdorini aniqlash qiyinchilik tug'diradi. Aliment to'lovlarining vaqtida amalga oshirilishini ta'minlashda ijro mexanizmlarining yetarli darajada samarali emasligi kuzatilmoqda.

Aliment to'lashdan bo'yin tovllovchi shaxslarni javobgarlikka tortish mexanizmi ba'zan kechikishlar va murakkabliklarga olib keladi. Agar taraflardan biri chet elda bo'lsa, aliment miqdorini aniqlash va ijro qilishda xalqaro mexanizmlar yetarli darajada qo'llanilmayapti.

O'zbekistonning Gaaga konvensiyalariga qo'shilmaganligi ushbu masalani murakkablashtiradi.

Milliy qonunchilikda aliment majburiyatlariga oid normalar mavjud bo'lsa-da, ularni xalqaro standartlar bilan muvofiqlashtirish va amaliyotda qo'llashni yanada samarali qilish uchun keng ko'lamli islohotlar talab qilinadi.

Oila kodeksidan tashqari(VIII bo'lim. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni tartibga solish) O'zbekiston Respublikasining ko'p tomonlama va ikkitomonlama xalqaro shartnomalari ham chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solish manbalari hisoblanadi. Masalan, irqi, terisining rangi, tili, milliy kelib chiqishi hamda boshqa qandaydir holatlardan qat'i nazar, kamsitishlarning har qanday shaklidan bolani muhofaza qilishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar to'g'risidagi, shuningdek, bolaning manfaatlarini eng yaxshi ta'minlash, jumladan, fuqarolarni farzandlikka olish huquqi, bolalarni noqonuniy tarzda chegaradan o'tkazish va qaytarish to'g'risidagi prinsipial qoidalar BMTning 1989-yil 20-noyabrida qabul qilingan «Bolalarning huquqlari to'g'risida»gi konvensiyasiga kiritilgan. Bu konvensiya 1990-yil 2-sentabrdan boshlab kuchga kirdi. 1996-yil 31-may holati bo'yicha konvensiyada 187 ta davlat, shu jumladan O'zbekiston ham ishtirok etmoqda. 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966-yilda qabul qilingan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, 1959-yilda qabul qilingan Bola huquqlari deklaratsiyasi ham xorijiy fuqarolar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni tartibga solishda muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasining MDH davlatlari bilan bo'lgan munosabatlarida 1993-yil 22-yanvarda Minsk shahrida imzolangan Huquqiy yordam va fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy munosabatlar to'g'risidagi konvensiya hamda shu konvensiya yuzasidan 1977-yil 28-martda qabul qilingan, oila huquqlarining alohida normalari tilga olib o'tilgan Protokol

birinchi darajali o'rin tutadi. Oila huquqining ko'pgina masalalari O'zbekiston Respublikasining dunyoning bir qator mamlakatlari bilan tuzilgan fuqarolik, oila, jamiyat ishlarini hal etish borasida huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi ikkitomonlama shartnomalarida ham ko'rib chiqilgan.

Zamonaviy sharoitlarda faoliyati kollizion oila huquqi normalarini kodifikatsiya qilishga qaratilgan hukumatlararo tashkilotlarning ahamiyati kattadir. Xalqaro xususiy huquq bo'yicha Gaaga konferensiyasi ko'pgina mamlakatlar uchun ayniqsa muhim o'rin tutadi. Unda ishlab chiqilgan va qabul qilingan barcha konvensiyalarning uchdan bir qismidan ko'prog'i kollizion oila huquqiga taalluqlidir. Ular orasida 1978-yil 14-martda qabul qilingan nikoh tuzish haqiqiyligini tan olish to'g'risidagi konvensiyani hamda er xotinning mol-mulki rejimlariga nisbatan qo'llaniladigan huquqi to'g'risidagi konvensiyani, 1980-yil 25-oktabrda qabul qilingan bolalarni xalqaro o'g'irlashning fuqaroviy jihatlarini to'g'risidagi konvensiyani va 1993-yil 29-mayda qabul qilingan bolalarni himoya qilish va xorijiy farzandlikka olish borasida hamkorlik qilish to'g'risidagi konvensiyani tilga olib o'tish mumkin. Yuqorida sanab o'tilganlardan ko'rinib turibdiki, oilaviy qonunchiliklarida tafovutlar bo'lgan mamlakatlarning fuqarolari o'zaro nikoh tuzganlarida kollizion masalalarni hal etish ma'lum ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro hamkorlikning hozirgi shart-sharoitlarida O'zbekiston fuqarolarining chet elliklar bilan tuzayotgan nikohlari soni oshib borayotganligi kuzatilmoqda. Bunday nikohlarning tuzilishi o'z navbatida bolalar va ularning ota-onalarining turli mamlakatlar fuqaroligida bo'lishlari soni ko'payib ketishiga sabab bo'lmoqda. O'zbekistonda respublika fuqarolari bilan chet elliklar o'rtasida, chet elliklar bilan chet elliklar o'rtasida, shu jumladan turli mamlakatlar fuqarolari o'rtasida tuzilgan nikohlar qayd etildi. Qonunchiligimizda O'zbekiston fuqarolarining chet elliklar bilan nikoh tuzishlari yoki shunday nikoh uchun ruxsatnoma olishlari ta'qiqlanmagan.

O'zbekiston Respublikasi hududida fuqarolarimiz chet el fuqarolari bilan, chet el fuqarolari esa o'zaro O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 3 bobida ko'rsatib o'tilgan tartiblar va shartlarga amal qilgan holda O'zbekiston qonunlariga binoan nikoh tuzadilar. Kodeksning 234-moddasida bu to'g'rida shunday deyiladi: «O'zbekiston Respublikasida doimiy turgan chet el fuqarolari va

fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uning hududidagi oilaviy munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlardan foydalanadilar va teng majburiyatlarga ega bo'ladilar». Boshqacha aytadigan bo'lsak, ushbu sohada «nikoh tuzilgan joy» kollizion prinsipi qo'llaniladi.

Xozir zamonda migrasion holat rivojlanayotgan bir davrda, insonlarning erkin yashash joyi tanlash huquqi amalga oshayotgan davrda davlatlar orasida nafaqat siyosiy yoki iqtisodiy munosabatlar, balki ijtimoiy tus olgan munosabatlar ham rivojlanib va murakkablashib bormoqda.

O'rnak sifatida bunga chet el elementi aralashgan oilalar, chet elda yashayotgan ota yoki ona, oiladagi nafaqa undirilayotgan ota va da'vogar ona-bolaning turli mamlakatda yashashi ushbu murakkab munosabatlarning vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Masalan Anadolu Agentligi muhbirlarining Turkiya Statistika Qo'mitasining bergan hisobotiga ko'ra tuzgan maqolasida aytilishicha, o'tgan 2023 -yil hisobiga mamlakatdagi qurilgan oilalarning 6345 tasi xorijlik kuyovlar va 31029 tasi esa chet ellik ayollar bilan qurilgan.¹ Yoki yana bir misol, 2005 yilda o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra Germaniyada ajrashgan oilalarning taxminan 15% ga yaqini ya'ni 30 000ga yaqin juftlikda turli davlat fuqaroligi mavjud bo'lgan va bu holat aliment undirish masalalarini ancha murakkab tus olishiga olib kelgan.² Bugungi kunda xalqaro xususiy huquqda bolalar huquqlarini qo'llabquvvatlash majburiyatlari bilan bog'liq nizolar asosan Birlashgan Millatlar tashkiloti va bolalarni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq Gaaga Konventsiyalar qo'llaniladi.

Ota-onalar voyaga yetmagan, shuningdek yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz bolalarga ta'minot berishlari shart. Oila buzilib ketadigan bo'lsa, bolaga O'zbekiston qonunchiligiga binoan aliment to'lanadi. O'zbekistonda qoladigan bolasi uchun aliment to'lashi lozim bo'lgan shaxslar O'zbekiston hududidan chiqib ketadigan bo'lsalar, xalqaro shartnoma mavjud bo'lmagan hollarda ancha qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. O'zbekiston hududida yashamaydigan, chet el fuqarosi hisoblanadigan bola uchun aliment to'lash majburiyati paydo bo'ladi. Qonunchiligimizda aliment majburiyatlariga nisbatan qo'llaniladigan huquqni belgilab beradigan kollizion normalar mavjud emas. Ammo yuridik adabiyotlarda bunday hollarda O'zbekiston qonunlarini qo'llash lozim deb xulosa qilingan. Amaliyotda ham bu masalalar shunday hal etiladi. Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soladigan qonun masalasi huquqiy yordam to'g'risidagi shartnomalarda hal etilgan. Bu shartnomalarda aytilishicha, ota-onalar va bolalar qaysi davlat hududida doimiy istiqomat joyiga ega bo'lsalar, ular o'rtasidagi huquqiy munosabatlar ham o'sha davlat qonunlari bo'yicha belgilanadi. Ammo agar ota-onalarning yoki ulardan birining istiqomat joyi ikkinchi bir davlatda bo'lsa, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar bola fuqarolikda turgan mamlakat qonunlari yordamida tartibga solinadi.

Onasi bilan qayd etilgan nikohda turmagan shaxsdan tug'ilgan bola bilan uning otasi o'rtasidagi huquqiy munosabatlar bola fuqarolikda turgan mamlakat qonunlari bilan tartibga solinadi.

Chet el elementi bilan murakkablashgan ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berishda va voyaga yetgan va mehnatga layoqatli bolalarning ota-onasiga nisbatan aliment

¹ <https://www.aa.com.tr/tr/ekonomi/yabanci-gelin-sayisinda-zirvenin-yeni-sahibi-ozbek-kadinlar/3145635>

² Commission Green Paper on applicable law and jurisdiction in divorce matters, SEC(2005) 331 Brüksel, COM(2005) 82 final, 14.03.2005, b. 3.

majburiyatlarida yashash joy kollizion bog'lovchi sifatida qabul qilingan. Ya'ni bola boshqa davlat fuqarosi bo'lsada, aliment undirish masalasi vujudga kelsa, bolaning yashab turgan joyiga oid qonunchilik bilan bu masala hal bo'ladi.

Bolaning doimiy yashash joy qonuni ota-ona va bolaning fuqaroligi mansub bo'lgan davlat qonunidan mustaqil bo'lib, ular birlikda qaysi mamlakat hududida istiqomat qilsalar, o'sha mamlakat oila qonunchiligi qo'llaniladi. Bu esa bola manfaatlarini yaxshiroq himoyalashiga olib keladi. Bola doimiy yashayotgan mamlakat qonunidan foydalanish da'vogarga qulay imkoniyatlar yaratadi. Aliment munosabatlarida bolaning doimiy yashash joy qonuni subsidiar tarzda qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasida ko'pincha chet el elementi bilan murakkablashgan aliment munosabatlarining aksariyatida ota-ona va bolalar birgalikda yagona davlat hududida yashamagan holatlarda sudga murojaat qilinadi. Bunday holatlarda qoidaga ko'ra amaliyotda da'vogar talabiga binoan voyaga yetmagan bola yashayotgan mamlakatning qonun hujjatlarining qo'llashi qabul qilingan. Ammo sud da'vogarning talabi bilan bola doimiy yashayotgan mamlakat qonunchiligini qo'llashi ham qo'llamasligi ham mumkin.

Endilikda, aliment masalasini yoritib beradigan bo'lsak, aliment majburiyatlarini tartibga solish muammosi, buning natijasida bir shaxs boshqa shaxsga moddiy xizmat ko'rsatish majburiyatini oladi, albatta e'tibordan chetda qolmaydi. Alimentning ayrim masalalari sovet davrida tahlil qilingan I. K. Gorodetskiy, L. A. Lunts, N. I. Marysheva, N. V. Orlova, A.I.Pergament va boshqalar. Ushbu keltirib o'tilgan mualliflar bu masalaga asosiy e'tibor qaratganlar, masalan qamoqda saqlanayotgan ota-onalardan Rossiyada yashayotgan bola uchun aliment undirish imkoniyatini ta'minlash va boshqa masalalar.

Xalqaro miqyosda aliment undirishning yagona tartibi bolalarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida, davlatlar birgalikda harakat qildi. Natijada, 1956 yildagi "Xorijda alimentlarni undirish to'g'risida" konvensiya qabul qilindi. (Rossiya ishtirok etadi).

Konvensiya ishtirokchisi taqdiri muhtoj inson uchun imkoniyatlar alimentni olishiga bog'liq, sudlanuvchidan aliment undirish, kim boshqa ishtirokchi davlat hududida istiqomat qiladi.

Ko'pincha bu jarayon qonuniy va faktik qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bugungi kungacha aliment undirish muammosi global ravishda nizo holatiga ko'tarilmoqda. Shu sababali Konvensiya aliment undirishning yangi tartibini ishlab chiqdi. Bu borada bir nechta konvensiyalar qabul qilindi. Ishlar bo'yicha sud qarorlarini tan olish va uni ijro etish to'g'risidagi konvensiya "Bolalar foydasiga aliment" (1958-yilgi). "Amaldagi qonun va qabul qilish to'g'risidagi qarorlarni tan olish" Yurisdiksiya to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi (1965-yilgi). "Aliment majburiyatlari" qo'llaniladigan huquq to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi(1973- yilgi).

“Amaldagi qonun, javobgarlikni tan olish, amalga oshirish va hamkorlik qilish ota-onalar va bolalarni himoya qilish choralari” yurisdiksiya to’g’risidagi Gaaga konvensiyasi (1996- yilgi).

Ushbu konvensiyaga 2012-yil Rossiya qo’shilgan. “Bolalar va boshqa oila a’zolari uchun aliment undirish tizimi” (2007 yil).

Xalqaro xususiy huquqda yuqorida berilgan konvensiyalar aliment undirish majburiyatini keng qamrovli tartibga solishni ta’minlaydi. Biz o’rganayotgan sohani huquqiy tartibga solish evolutsiyasi ni tavsiflash munosabatlar, yig’ish mexanizmi bilan bir qatorda biz yuqorida ko’rsatib o’tganimizni ta’kidlaymiz. 1956-yilgi konvensiyaga muvofiq, aliment undirishning asosiy asosi sifatida bola doimiy yashayotgan davlat qonuni qo’llaniladi. Faqat bolaning huquqlari qonunda belgilanmagan hollarda, istisno ravishda aliment olish va sud orqali tartibga solishga ruxsat beriladi. Ta’minot masalalarini hal qilish uchun vakolatli organ tomonidan 1965 yil Konvensiyasi bolalar farovonligi, bola odatda yashaydigan davlat organi deb ataladi. 1973-yilgi Konvensiyaga ko’ra, shaxsning aliment olish huquqi ham mavjud doimiy istiqomat qiladigan mamlakatning ichki qonunchiligi bilan belgilanadi. Albatta, milliy qonunchilikda bunday huquq bo’lmasa, bunda alimentni oluvchi va to’lovchining umumiy fuqaroligi to’g’risidagi qonunni qo’llash kifoya. Bu yerda esa aliment undirishning iloji bo’lmasa, albatta birinchi navbatda qonun qo’llaniladi.

Oila kodeksining alimentga oid barcha normalarida bolalarning manfaatlarini himoya qilish prinsiplariga alohida e’tibor qaratilgan. Biroq amaliyotda bu prinsiplarga har doim ham rioya qilinmaydi. Shu sababli aliment miqdorini aniqlashda sudlarga bir xil yondashuv metodologiyasini joriy etish zarur. Aliment majburiyatlari bo’yicha qarorlarning o’z vaqtida ijrosini ta’minlash uchun davlat ijrochilari xizmatining rolini kuchaytirish va qarzdorlarga nisbatan moliyaviy javobgarlik mexanizmlarini kuchaytirish talab etiladi. Aliment bo’yicha xalqaro nizolarni samarali hal qilish maqsadida O’zbekiston xalqaro konvensiyalarga qo’shilishi zarur.

Ayniqsa, 2007-yilda qabul qilingan Gaaga protokoli ushbu sohada qo’llaniladigan huquqni aniqlashni osonlashtiradi.

XULOSA

Aliment majburiyatlariga oid xalqaro xususiy huquq masalalari davlatlararo huquqiy munosabatlarning murakkab va ko’p qirrali sohasi hisoblanadi. Ushbu masalalar oilaviy munosabatlarning transmilliy xarakteri sababli xalqaro huquqiy tizimlar va milliy qonunchilik o’rtasidagi integratsiyani talab qiladi. Aliment majburiyatlariga nisbatan qo’llaniladigan huquqni aniqlashda kollizion me’yorlarning ahamiyati katta. Ammo ushbu qoidalar turli davlatlarda farqlanadi, bu esa huquqni qo’llashda aniqlik va barqarorlikni buzadi. Shu sababli, xalqaro kollizion me’yorlarni bir xil talqin qilish va ularni milliy qonunchilikka moslashtirish zarur.

"Lex loci domicilii" (tomonlarning yashash joyidagi huquqni qo'llash) va "lex patriae" (fuqaroligi asosidagi huquqni qo'llash) tamoyillari aliment majburiyatlarini tartibga solishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq, ushbu tamoyillar zamonaviy xalqaro munosabatlarning murakkabligi sababli har doim ham adolatli huquqiy natijani ta'minlay olmaydi. Aliment masalalari bo'yicha xalqaro hujjatlar, masalan, 1956-yilgi Nyu-York konvensiyasi yoki 2007-yilgi Gaaga protokoli, xalqaro xususiy huquqning ixtisoslashgan yo'nalishlari sifatida bir necha nazariy yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Ushbu hujjatlar davlatlararo hamkorlikning nazariy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Aliment majburiyatlariga nisbatan qo'llaniladigan huquqni aniqlash nazariy jihatdan xalqaro adolat tamoyiliga asoslanishi kerak. Bu tamoyil milliy manfaatlarni xalqaro huquqiy tartibot bilan uyg'unlashtirishni talab qiladi.

Mazkur tadqiqotning nazariy jihatlari xalqaro huquqning aliment majburiyatlariga oid bo'limini yanada chuqurroq o'rganish, milliy va xalqaro me'yorlarni takomillashtirish hamda ularni o'zaro uyg'unlashtirish bo'yicha yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari xalqaro xususiy huquqning nazariy rivojiga hissa qo'shadi va davlatlararo oilaviy munosabatlarning huquqiy tartibini mustahkamlash uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Aliment majburiyatlari xalqaro xususiy huquqda oilaviy munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, aliment majburiyatlarini tartibga soluvchi huquqni aniqlash jarayoni bir qancha muammolarni o'z ichiga oladi. Asosiy muammolar quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi kabi ayrim davlatlarning xalqaro huquqiy mexanizmlar, xususan, 2007-yilda qabul qilingan Alimentga oid xalqaro masalalar bo'yicha Gaaga protokoli yoki boshqa universal hujjatlarga qo'shilmaganligi transmilliy nizolarni hal qilishni murakkablashtirmoqda. Aliment majburiyatlariga oid huquqni aniqlashda milliy huquqiy me'yorlar bilan xalqaro normalar o'rtasidagi nomuvofiqlik yoki ziddiyatlar kelib chiqadi. Shu bilan birga, "lex fori" (sud joyidagi huquqni qo'llash) tamoyilining qo'llanilishi ko'pincha tomonlarning manfaatlariga zid keladi. Aliment to'lovlarini transmilliy miqyosda ta'minlashda davlatlar o'rtasida o'zaro hamkorlikning yetarli darajada rivojlanmaganligi aliment oluvchi tomonlarning huquqlarini samarali himoya qilishga to'siq bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasining aliment masalalari bo'yicha xalqaro konvensiyalar va protokollarga qo'shilishi zarur. Bu transmilliy nizolarni hal qilishda aniq va samarali huquqiy mexanizmlarni ta'minlaydi. Aliment majburiyatlarini tartibga soluvchi milliy huquqiy normalar xalqaro standartlarga muvofiq qayta ko'rib chiqilishi lozim. Aliment to'lovlarini kuzatish va ijro etish uchun raqamli platformalarni rivojlantirish ijro mexanizmlarini soddalashtiradi.

Umuman olganda, aliment majburiyatlari bo'yicha qo'llaniladigan huquqni aniqlash xalqaro va milliy huquq tizimlarining samarali integratsiyasini talab qiladi. Ushbu tadqiqot natijalari mazkur sohada huquqiy islohotlar olib borishda muhim ilmiy va amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

REFERENCES

1. "Chet elda aliment undirish to'g'risida"gi Nyu-York konvensiyasi. 1956.
2. "Bolalar foydasiga alimentlar bo'yicha sud qarorlarini tan olish va ijro etish to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi" // Xalqaro xususiy huquq jurnali. – 2000-yil. – № 2-3. – 67-70-betlar.
3. "Farzandlikka olish bo'yicha yurisdiksiya, qo'llaniladigan huquq va qarorlarni tan olish to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi". (1965-yil 15-noyabr). // Xalqaro xususiy huquq: hujjatlar to'plami. – Moskva: BEC, 1997-yil. – 669-674-betlar.
4. "Aliment majburiyatlariga qo'llaniladigan huquq to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi"(1973-yil 1-oktyabr). // Xalqaro xususiy huquq: hujjatlar to'plami. – Moskva: BEC, 1997-yil. – 680-684-betlar.
5. "Ota-onalarning javobgarligi va bolalarni himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlar yuzasidan yurisdiksiya, qo'llaniladigan huquq, qarorlarni tan olish va ijro etish hamda hamkorlik to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi"(1996-yil 15-oktyabr). "Garant" axborot-huquqiy tizimi.
6. "Xalqaro xususiy huquq". Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. // H.R. Rahmonqulov va boshqalar / H.B. Boboyev, M.X. Rustamboyev, O. Oqyo'lov, A.R. Raxmanovlarning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2002-yil.
7. T.S. Sodiqova. "Xalqaro xususiy huquqda aliment masalalari". Toshkent, 2018-yil.
8. P. Beaumont. "Private International Law and Maintenance Obligations". Oxford University Press, 2016-yil.
9. M. Bogdan. "Comparative Private International Law". Kluwer Law International, 2017-yil.
10. A.V. Droz. "The Applicable Law in Maintenance Obligations". Gaaga Konferensiyasi hujjatlari, 2008-yil.